



## PROPOSALS AND PROJECTS FOR THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

**Baxshullayeva Aziza Ilyos qizi**

Nukus State Pedagogical Institute, Faculty of Foreign Languages,  
3rd year student of English language and literature  
Uzbekistan, Nukus

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5500322>

### ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> September 2021  
Accepted: 05<sup>th</sup> September 2021  
Online: 10<sup>th</sup> September 2021

### KEY WORDS

Peace, education,  
teachers-professors,  
testing

### ABSTRACT

*This article is about proposals and projects for the Higher Education System. In this article, I have included my own suggestions, which are important for the Higher Education System today.*

## OLIV TA'LIM TIZMI UCHUN TAKLIF VA LOYIHALAR

**Baxshullayeva Aziza Ilyos qizi.**

Nukus davlat pedagogika instituti, Chet tillar fakulteti,  
Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi  
O'zbekiston, Nukus

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-sentabr 2021  
Ma'qullandi: 05- sentabr 2021  
Chop etildi: 10- sentabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

Jahon, ta'lim olish,  
o'qituvchi-professorlar, test  
sinovlari

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola Oliy ta'lim tizimi uchun taklif va loyihalar haqida. Bu maqolada eng asosiysi Oliy ta'lim tizimi uchun bugungi kunda muhim bo'lgan o'zimizning takliflarimni kiritdim.*

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga

kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda universitetlarning ta'lim berish faoliyati yanada takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish, egallagan kasbi



bo'yicha doimiy ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta'lim olishni eng asosiy shart sifatida ko'rmoqda. Agar shunday qilinmasa, bir kun kelib, tamaddundan yiroqlashish, mamlakat uchun keraksiz, ortiqcha daxmazaga aylanib qolish ham hech gap emas. Yillar davomida biz rivojlanmadik, kuzatuvchi bo'lib qolaverdik, deyish, albatta, noto'g'ri bo'lardi.

Mening ta'lim tizimiga yangi loyihalarim quydagilar:

- Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarini ularning vazifalari va faoliyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lmagan yig'ilishlarga va boshqa tadbirlarga jalb etish taqiqlansin. Davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari, barcha darajadagi hokimlar mazkur talabni buzganligi uchun egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan shaxsiy javobgarligi to'g'risida qat'iy ogohlantirilishlari lozim.

- institutlari vakillaridan iborat tarkibda jamoatchilik kengashlari tashkil etish va talabalarining murojaatlarini ko'rib chiqish, ularning pedagog kadrlar haqidagi fikrini to'liq o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rovlar o'tkazilsin.

- ilg'or xalqaro imtihon tizimlari (TOEFL, IELTS, CEFR, SAT General, SAT Subject va hokazo) sertifikatlariga ega bo'lgan abituriyentlarga tegishli fanlardan belgilangan eng yuqori ball berish va ushbu fanlar test sinovidan ozod qilish tartibin bekor qilish va ularni sinash maqsadida 30 ta emas 15 ta test topshirishsin, sertifikat esa ularning 4 qobilyatlari yuzasidan ya'ni :

listening, writing, reading, speakingdan olgan sertifikatlari hisoblanadi.

- va yana eng qat'iy qo'yilishini xoxlaydigan islohotim bu o'qishga topshirishdan oldin qatnaydiga barcha o'quv kurslarini bekor qilish va kursda qo'llanadigan qat'iy chora tadbirlarni maktab ta'lim tizimiga kiritish.

- o'quvchilarning maktabda olgan baholariga qarab oliy o'quv yurtlariga qabul qilinmasin aksincha maktabda o'tilganlari yuzasidan bo'ladigan barcha testni ishlab o'qishga qabul qilinaversin.

- stipendiya qaytib ballik tizimiga ko'chirilsin chunki, imtihonlarni 5 bilan yopgan ham 3 bilan yopgan ham bir xil stipendiya oladi, ayniqsa davlat to'lov kontrakti asosida o'qiyotgan talabalarining barchasining ham bilim darajasi yaxshi emas chunki ular imtihonlarni 3 bilan yopsa ham stipendiya oladi, lekin davlat granti asosida ta'lim olayotgan talabalar imtihonlarning 30% ini 3 bilan yopsa 6 oy stipendiyadan mahrum qilinadi bu esa bilim darajasini pasayishiga olib keladi.

- ta'lim olayotgan yoshlar tadbirkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yoshlarni biznes bilan shug'ullanishga faol jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratish, malakali xorijiy mutaxassislarini ta'lim jarayoniga jalb qilish, shuningdek, Akademiya mutaxassislarini nufuzli xorijiy oliy diniy ta'lim va ilmiy muassasalarga malaka oshirish hamda tajriba orttirish uchun yuborish, talabalarining akademik almashinuvini yo'lga qo'yish vazifalari belgilandi

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarni Ona Vatanga, mustaqillik g'oyalariga



muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash,  
ularning iste'dod va qobiliyatini, ezgu

intilishlarini ro'yobga chiqarish yo'lida  
boshlagan ishlar davom etmoq'g'i lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. ÓzME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. <http://info.ziyonet.uz>
3. <http://uz.m.wikipedia.org>